

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TASDIQLANGAN VA IMZALGA KIRITILGAN

QIRIL ETILGAN

60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili)
bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari

Toshkent - 2023

ISHLAB CHIQILGAN:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023-yil «29» 08 dagi 397- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim Davlat ta'lim standarti, Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	9
2.3.1	Kvalifikatsiya.....	9
2.3.2	60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	10
2.3.3	60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	10
	Bibliografik ma'lumotlar.....	11
	Kelishuv varag'i	13

1. 60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishining tavsifi

60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) – fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'lib, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida ta'lim yo'nalishiga oid fanlarni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;

- umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida;
- ijtimoiy faoliyatlar doirasida barcha ishlab chiqarish obektlarida;
- turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan idora va tashkilotlarda;
- tojik tilning nazariy va amaliy asoslari, lug'at boyligi, mazkur tilda ilmiy, badiiy adabiyot hamda qo'lyozmalarni o'qish va talqin qilish;
- o'rganilayotgan tilda og'zaki nutq malakasini o'ttirish;
- o'rganilayotgan tilda og'zaki nutq malakasini o'ttirish; tojik adabiy til, umumiy tilshunoslikning nazariy masalalari; o'rganilayotgan asosiy adabiyot, folklor, mumtoz va hozirgi adabiyot, uning tarixi, nazariy masalalari; adabiy aloqalar, adabiyotshunoslik;
- tarjima nazariyasi va amaliyoti, matn tarjimasi, sinxron tarjima masalalari;
- o'rganilayotgan til metodikasi, dars berish mahorati, nutq madaniyati tamoyillari kabilardan iborat.

60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishini tamomlagandan so'ng, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida tarbiya, tarix fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv faoliyat;*
- *ma'naviy-ma'rifiy faoliyat.*
- *pedagogik (umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim tizimida);*

1.2.4. 60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishlaridagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- ma'lumotlarni jamlash, qayta ishlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;
- kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;
- ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarini bajarish;

- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lim yo'nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;

- ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

- ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;

- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

- tarix fanlariga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- filologik faoliyat sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

- pedagogik jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish;

- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

- ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlool g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi lozim.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

- Yoshlar ittifoqi tashkiloti, mahalla fuqarolar yig'ini bilan hamkorlikda ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha individual suhbatlar o'tkazish;

- O'zbekiston va jahon tarixiga oid manbalardan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy sohada foydalanishni tashkillashtirish;

- umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarini ochib berish.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatida:

- umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;

- o'quv fanlarini o'qitish uslubiyotini egallash;

- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

- o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish.

2. 60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetentsiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, ilmiy madaniyatni shakllantirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish;
- o'quv fanlarini o'qitish metodikasini va elektron o'qitish usullarini o'zlashtirishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzishi, tayyorlashi va rasmiylashtirishi;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'qitishning didaktik vositalaridan foydalanishi;
- an'anaviy va noan'anaviy metodlar, ilg'or pedagogik texnologiyalarni ixtisoslikka mos fanlarni o'qitish chog'ida tanlay bilishi, o'z fanida metod va texnologiyalarni ijodiy qo'llay olishi, faktlarni tahlil qilishi, umumlashtirish va shu asosda xulosa chiqara olishi;
- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usul va vositalariga ega bo'lishi;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetentsiyalar:

- tojik tilning yozma, adabiy va og'zaki shakllarini; tilning ilmiy tavsifi, yozuv, grafik xususiyatlari, orfografiyasi, punktuatsiyasi, leksik-grammatik xususiyatlari, so'z yasalishi va uning tuzilishi, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish qonuniyatlarini; sodda va qo'shma gaplar, so'z birikmalari, leksika va yozma nutq, dialektik leksikaning asosiy xususiyatlarini; ilmiy atamalar tizimi, lingvistika va adabiyotshunoslikka oid ma'lumotlar bazasini shakllantirish va ulardan foydalanishni bilish;
- tojik tildagi adabiy matnlarni o'qitish olib borilayotgan tilga tarjima qila olishi; chet ellik mutaxassislar bilan muayyan sohada va umumiy masalalarda to'laqonli jonli muloqot olib borishi; har turli va murakkab matnlarni o'qitish olib borilayotgan tildan tojik tilning hozirgi adabiy shakliga yozma tarjima ishlarini amalga oshirishni bilish;
- tojik tilidan davlat tili va boshqa o'qitilayotgan tillarga suhbat, nutq va ma'ruzalarni og'zaki izchil va sinxron tarjima qila olishi; davlat tili va o'qitish olib borilayotgan tildagi ma'lumotlarni qo'llab annotatsiya, referat, ma'lumotlar to'plashi va tuzishni bilishi;

- tojik tilshunosligi, umumiy tilshunoslik, qadimgi ironiy til, tojik tili tarixi, tojik folklori, tojik dialektologiyasi va sheva matnlari leksikasi tahlili, hozirgi tojik adabiy tili, tojik adabiyoti tarixi, nazariyasi, matnshunoslik, jahon adabiyotiga oid bilimlarni egallash, ilmiy tadqiqot asoslari, sotsiolingvistika, tojik leksikografiyasi, til fanlari, adabiyotning dolzarb masalalarini ilg'ay olish, ilmiy faoliyatda qo'llay bilish va o'quvchilarga yetkaza olish;

- aruz vazni va uning qoidalari, mumtoz she'riy asarlarning o'lchovini aniqlash va mumtoz janrlar badiiyatini o'rganish; islomgacha bo'lgan Sharq adabiyotshunosligi manbalari, adabiy oqim va yo'nalishlar, adabiyotshunoslik janrlarining genetik ildizlari va qo'llanilish mohiyatini tushunish; tasavvufning manbalari hisoblangan Qur'oni karim, Hadisi sharifga asoslangan tasavvufning nazariy manbalari, Markaziy Osiyodagi tasavvuf tariqatlari, badiiy asarlar tarkibidagi irfoniy va tasavvufiy g'oyalarni anglash, ramz va timsollarning ma'nolarini sharhlash bo'yicha tushunchaga ega bo'lish, Sharq tazkirachiligi tarixini o'rganish orqali adiblarning tarjimai holi va ijodiy merosi haqidagi bilimlarni egallash; adabiy matn tabiatini falsafiy asosda anglash, tadqiq etish va matnni tahrir qilish ko'nikmasini shakllantirish;

- gapning semantik, modal, kommunikativ aspekti, tojik tilshunosligida matn, xususan, badiiy matnning semantik-sintaktik va lingvistik mexanizmlarini, tojik tilining mohiyati va uning yetakchi vazifalarining namoyon bo'lish qonuniyatlarini anglash; leksik ma'no va uni belgilovchi omillar, leksik ma'noning strukturasi, leksik ma'noni tahlil qilish usullari hamda shu sohada qo'lga kiritilgan jahon va tojik tilshunosligidagi so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'lish; tojik tili grammatikasini modellashtirish va kompyuter lingvistikasi taraqqiyoti jarayonini; nutq madaniyati va uslubi asoslarini o'rganish;

- ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning istiqbol rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tojik adabiyotining jahon adabiyotidagi o'rni va uning bashariyat taraqqiyotidagi ulushini aniqlashi; jahon adabiyoti an'analariidan sharq adabiyotining milliy xususiyatlarini ajrata olishi; sharq mamlakatlarida adabiy ta'sir masalalarini farqlashi, ularning asosiy metod va usullarini qo'llay bilishi;

- yangi tojik adabiyoti tarixining taraqqiyot tamoyillari, davr adabiyotini yuzaga keltirgan omillar, qonuniyatlar, o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish malakasi va bilimiga ega bo'lish; tojik adabiyoti taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini belgilash; qiyosiy adabiyotshunoslikning umumnazariy va uslubiy muammolari, tojik mumtoz adabiyoti, qiyosiy mifologiya va folklorshunoslik, tojik adabiyoti jahon badiiy tafakkuri kontekstida o'rganilishi, tojik va jahon adabiy aloqalari, tarjimashunoslik va tarjima tanqidi kabi dolzarb masalalarni yoritish; forsiy va dariy adabiyoti to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish, bu xalqlar adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodi, folklori, yozma adabiyoti namunalariidan xabardor bo'lish; munaqqidlar, adib-munaqqidlarning faoliyati, adabiy tanqidchilikdagi janrlar va uslublar masalasini tadqiq qilish orqali tanqidiy qarashni shakllantirish;

- o'rganilayotgan tilning mamlakat tarixi, geografiyasi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tizimi, xalqaro munosabatlari, uning jahon hamjamiyatidagi geopolitik o'rnini bilishi;

- tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko'nikmalari va uquvlarini shakllantirishi;

- ta'lim yo'nalishi negizidagi muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga ongli munosabatda bo'lishiga ko'maklashishi lozim.

- umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining o'rganish obyektlari, predmet, maqsad va vazifalari, hodisa va jarayonlarni bilishi va ulardan ilmiy tadqiqotlarda unumli foydalanishi va qo'shimcha ravishda chuqur bilim olish uquviga ega bo'lish;
- mehnat bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlashi hamda ta'lim xizmatlari sohalari rivojini jadallashtirishi va shakllantirishni bilish;
- ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablar va mehnat bozori kon'yukturasi tez o'zgarayotgan sharoitda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalar va fan dasturlarining safarbarligi va moslashuvchan bo'lishini ta'minlashi va ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- kasbiy faoliyat strategiyasi va taktikasini to'g'ri tanlay olish, kasbiy nuqtai nazarining barqarorligini ta'minlash ko'nikmalariga ega bo'lish.
- umumiy pedagogika nazariyasi, o'qitish jarayoni, o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari; ta'limda ilmiylik, izchillik, muvofiqlik, ijodiylik va boshqa prinsiplar; ta'lim jarayonida motivatsiya; ta'lim metodlari, vositalari va texnologiyalari; umumiy va xususiy metodlar; umumiy pedagogik texnologiyalar; ta'lim tizimini boshqarish; pedagogik mahorat; umumiy psixologiya: umumiy psixologiya sohalari, yosh va pedagogik psixologiya: ta'limni va bilimlarni o'zlashtirishni boshqarish psixologiyasi; ta'lim va aqliy taraqqiyot; tarbiya metodlari va formalari; bo'lg'usi o'qituvchi shaxsi sifatleri; pedagogik qobiliyat: nazariya va amaliyot haqida bilim berishi borasida **ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni taminlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy jarayonlar bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar hamda malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

pedagogik amaliyot - pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: Filolog, pedagog.

2.3.2. 60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4800	160
Tanlov fanlar	1200	40
Malakaviy amaliyot	750	25
Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15

2.3.3. 60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (tojik tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	4800	160	
1.01	ATB105	Axborot texnologiyalari	150	5	1
1.02	O'EYTB104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.03	FALB104	Falsafa	120	4	3
1.04	DTIYB105	Davlat tilida ish yuritish	150	5	1
1.05	AJB104	Adabiy jarayon	120	4	2
1.06	DINB104	Dinshunoslik	120	4	2
1.07	HTATB1,2,3-24	Hozirgi tojik adabiy tili	720	24	2, 3, 4, 5
1.08	TTTB206	Tojik tili tarixi	180	6	3
1.09	TNB 1,4-10	Tilshunoslik nazariyasi	300	10	1,7
1.10	SHTB110	Sharq (arab, fors) tillari	300	10	1,2
1.11	TDB205	Tojik dialektologiyasi	150	5	4
1.12	TFB105	Tojik folklori	150	5	1
1.13	TMATB 2,3-17	Tojik mumtoz adabiyoti tarixi	510	17	2, 3, 4, 5
1.14	JEXAB205	Jahon va eroniy xalqlar adabiyoti	150	5	3
1.15	ANB 1,4-10	Adabiyot nazariyasi	300	10	1,7
1.16	TATTB405	Tojik adabiy tanqidchilik tarixi	150	5	7
1.17	ETQGB405	Eroniy tillarning qiyosiy grammatikasi	150	5	7
1.18	TTAO'MB306	Tojik tili va adabiyotini o'qitish metodikasi	180	6	5
1.19	UPUPSB308	Umumiy pedagogika. Umumiy psixologiya	240	8	5, 6
1.20	SOTB306	Sotsiolingvistika	180	6	6
1.21	TTILSHTB206	Tojik tilshunosligi tarixi	180	6	4
1.22	YTATB306	Yangi tojik adabiyoti tarixi	180	6	6
2.00		Tanlov fanlar	1200	40	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1200	40	3,4,5,6,7
		Jami	6000	200	
		Malakaviy amaliyot	750	25	2,4,6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15	
		Jami	1200	40	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, tojik til, tilning fonetik tizimi, yozuv va tovush munosabatlari; fonetik hodisalar; orfoepiya; orfografiya; imlo xususiyatlari, punktuatsiya; transkripsiya, transliteratsiya; tilning lug'at tarkibi, o'z va o'zlashgan qatlam; so'z va uning ma'nosi; tilda ko'p ma'nolilik hodisasi, polisemantizm; so'z ma'nosining torayishi va kengayishi; metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik; sinonimiya, omonimiya, antonimiya hodisalari; morfemika, tilning morfologik qurilishi; so'z yasalishi; so'z turkumlari; grammatik kategoriyalar; tilning sintaktik qurilishi; so'z birikmasi, erkin va turg'un so'z birikmalari, frazeologizm, sintagmalar; gap qurilishi, gap bo'laklari; gap turlari, sodda va qo'shma gaplar; ko'chirma va o'zlashtirma gaplar; to'liq va to'liqsiz gaplar; stilistika, og'zaki va yozma nutq; funktsional uslublar; nutq madaniyati; yozma va og'zaki nutq; so'z boyligi; publitsistika, folklor, badiiy adabiyot, poetika; she'r semantikasi, matn tarjimasini, matn talqini; rasmiy hujjatlar uslubi; badiiy uslub; badiiy asar; adabiy tur va janrlar; qofiya, radif, vazn, badiiy san'atlar; adabiy jarayon; milliy adabiyot, ijodkor individualligi, adabiy-ijodiy novatorlik; adabiy oqimlar; adabiy matn; adabiyot tarixi; adabiyot tarixini davrlashtirish; adabiyot namoyandalari; tarixiy-adabiy asar; metodika, pedagogik texnologiyalar, pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi, pedagogik mahorat, umumiy psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti



Rektor _____ **R.I.Xalmuradov**

202_ yil « _____ » _____

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tatbiq etish markazi

Direktor _____ **Sh.Yakubov**

2023-yil « _____ » _____



Toshkent davlat
Sharqshunoslik universiteti

Rektor _____ **G.Sh.Rixsiyeva**

202_ yil « _____ » _____

M.O'.



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti

Rektor _____ **Sh.Sirojiddinov**



2023-yil « _____ » _____

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (tojik tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar iste’molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Samarqand sh.

“ ” 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori prof. R.Xalmuradov, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori prof. Sh.Sirojiddinov, Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti rektori prof. G.Sh.Rixsiyeva birgalikda SamDUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (tojik tili) ta’lim yo‘nalishi.

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-iyundagi “2023/2024 O‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi PF-31-son Farmoyishiga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori, professor

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti rektori, professor

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, professor

R.Xalmuradov

G.Sh.Rixsiyeva

Sh.Sirojiddinov